

Obod mahallam



1-topshiriq. O'qing. O'z mahallangiz haqida so'zlab bering.



Mening mahallam

Men Toshkent shahridagi "Navbahor" mahallasida yashayman. Mahallamiz ahli bir-birlari bilan ahil-inoq. Uylar oldiga mevali va manzarali daraxtlar ekilgan. Yo'l chetlaridagi rang-barang gullar mahallamizga chiroy bag'ishlaydi. Biz mahallamizni ozoda saqlaymiz.



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Mahallangiz qanday nomlangan?
2. Mahallangizda qanday bayramlar nishonlanadi?
3. Siz o'z mahallangiz raisini taniysizmi?
4. Oila a'zolaringiz bilan birgalikda ommaviy hasharlarda qatnashasizmi?



3-topshiriq. Uycha ichidagi sehrli so'zlarni toping. Shu so'zlar ishtirokida suhbat matnini tuzing.





1-mashq. Nuqtalar o'rniga rasmdagi so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

Mahallamizda ( , )lar ko'p. Ko'chamiz boshida bolalar uchun ( , ) qurilgan. Biz kattalar bilan mahalla ko'chalariga ( , )lar ekamiz.

Bizning mahallamiz eng go'zal va obod mahalla.



2-mashq. So'zlarni tartib bilan joylashtirib, gaplarni yozing.

1. chiroyli, katta, va, Mahallamiz.
2. mahallada, obod, Biz, yashaymiz.
3. tadbirlar, turli, o'tkaziladi, Mahallamizda.
4. bobom, bo'lib, mahalla, raisi, Mening, ishlaydi.



4-topshiriq. She'ni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Mening mahallam

“Hamid Sulaymonov” deb
Ataladi mahallam.
U ham bir kichik o'lkam,
Ko'chalari keng, ko'rkam.

Olimlar yashar unda,
To'y, bazm, bayram kunda.
Katta-kichik inoqdir,
Ahillik bizga xosdir.

Ishonmaysiz gapimga,
Kelib ko'ring bir unga.
Shunda amin bo'larsiz
Mehmon bo'lib ketarsiz.

Sevarbek Elboyev



“Mening mahallam” she'ri yod oling. Lug'atdagi so'zlar ishtirokida beshta gap tuzing.

